



2020 yil avgust oyi holatiga ko'ra

Talabalik vizasini olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarini **shaxsan** topshirishlari shart. **Hujjat topshirish uchun qabulga yozilish faqat internetda, elchixonaning qabulga ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi.**
- Davlat oliy o'quv yurti yoki davlat tomonidan tan olingan oliy o'quv yurti yoki shunga o'xshash o'quv muassasasiga o'qishga qabul qilingani haqidagi tasdiqnomaga ega shaxslar **talaba** hisoblanadi. O'qish asosiy maqsad bo'lishi kerak
- Viza arizasi qaror qabul qilish maqsadida **Germaniyadagi xorijliklar masalalari boy'icha mas'ul idoraga (Ausländerbehörde)** yuboriladi. Shu sababdan yashash ko'zda tutilayotgan **manzil** (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) ariza blankida **to'liq va aniq ko'rsatilishi lozim**. Agar Siz yakuniy manzil haqida hali ma'lumotga ega bo'lmasangiz, **oliy o'quv yurtining aniq manzili, murojat uchun telefon raqamlari va mas'ul shaxsning ism-sharifini** qayd etishingizni so'raymiz. Germaniya hududiga kirib kelgandan so'ng, bu haqda yashash joyingizdagi xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha ma'sul idoraga xabar qilishingiz lozim. Ushbu idora Germaniyada vaqtincha qolish bo'yicha yakunlovchi qaror qabul qiladi.
- O'qishga bo'lgan qiziqish yetarlicha asoslansa, o'qishga qabul qilinganlik haqida tasdiqнома mavjud bo'lsa, o'qishni moliyalashtirish kafolatlangan bo'lsa va viza olish uchun mos keladigan pasport taqdim etilganda, viza arizasini ko'rib chiqish muddati topshirilgan kundan boshlab **uch haftayu ikki ish kunigacha qisqartirilishi mumkin.**
- Hujjatlar to'liq bo'lmasa yoki arizachi haqiqatdan ham o'qishga ketayotgani shubha uyg'otsa, hujjatlarni ko'rib chiqish vaqti **alohida hollarda 6-8 haftani** tashkil etishi mumkin. Shuning uchun arizani semestr boshlanishidan kamida 8 hafta oldin topshirish tavsiya qilinadi. Ushbu muddat mobaynida hujjatlar ko'rib chiqilish xolati haqidagi savollardan o'zingizni tiying, bunday ma'lumot telefon orqali ham berilmaydi.
- Arizangiz borasida qaror qabul qilinsa, elchixona xodimlari Siz bilan bog'lanadi. Rad javoblari (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi ushbu qarorni shaxsan o'zi olib ketishi mumkin.
- Ilmiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida taklif qilingan **olimlar**, shuningdek, jamoat tashkilotlari (masalan DAAD, Humboldt nomidagi jamg'arma) **stipendiyatlari** uchun viza berishning yengillashtirilgan tartibi qo'llaniladi va ular konsullik badalini to'lashdan ozod etiladi.
- **Viza badali 75 yevroni** tashkil etadi va to'lov hujjatlar topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** (amaldagi kurs bo'yicha) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart



Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalari biriktirilmagan xolda ikkita to'liq to'plamga** ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat (2ta fotosurat ariza blankiga yelimgan bo'lishi kerak).** Blankni elchixonaning internetdagi www.taschkent.diplo.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.
 - Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **imzolangan izoh**
 - kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan pasportingiz** va uning shaxsiy ma'lumotlar kiritilgan sahifasidan nusxa
 - Germaniya oliy o'quv yurtining o'qishga qabul qilish haqida hujjati.** T'alim olib boriladigan til **o'qishga tayyorlanish** doirasida o'rganilishi lozim bo'lsa, til kursiga yozilganlik va uning xarajati to'langani haqida tasdiqnoma
 - Hozirgacha **O'zbekistondagi akademik natijalaringizni tasdiqlovchi hujjatlar, diplomlar** hamda ta'lim olib boriladigan chet tilini bilishingizni tasdiqlovchi hujjatlar (nemis tili uchun odatda DSH yoki TestDaF sertifikat, ingliz tili uchun IELTS) va ularning **nemis tiliga tarjimasini**.
 - O'qishning kamida birinchi yiliga yetarli miqdorda moddiy mablag' mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (oyiga 861 yevro = yiliga 10332 yevro). Tasdiqnoma quyidagi shakllarda taqdim etilishi mumkin:
 - Biror nemis ijtimoiy muassasasi tomonidan oyiga 861 yevro miqdorida stipendiya ajratilishi haqida berilgan qaror; (stipendiya yetarli bo'lmasa, farqni qoplash quyidagi imkoniyatlarning biri orqali amalga oshiriladi)
- yoki,*
- Germaniya hududida bo'lish to'g'risidagi qonunning (Aufenthaltsgesetz) 66-68 moddalari asosida ta'limni moliyalashtirish uchun berilgan kafolat xati (Verpflichtungserklärung)
- yoki,*
- Germaniya banklaridan birida Sizning nomingizga ochilgan bloklangan hisob raqamida 10332 evro miqdorida mablag' borligini tasdiqlovchi hujjat.
- Tibbiy sug'urta polisi.** Tibbiy sug'urta viza berilishidan oldin olib kelinishi ham mumkin.